

SH. SARIQOV, X. SARIQOV

# IQTISOD VA SOLIQ SABOQLARI

**Qayta ishlangan uchinchi nashr**

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining  
7-sinfi uchun o'quv qo'llanma


*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi  
umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun o'quv qo'llanma sifatida  
tavsiya etgan*

Majburiy  
bepul nusxa

TOSHKENT

“YANGIYO'L POLIGRAF SERVIS”

2016



## Loyiha rahbari – O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasi raisi **B. Parpiyev**

O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasi raisi  
o‘rinbosari **E. Gadoyev** umumiy tahriri ostida

**Taqrizchilar:** **H. Xotamova** – RTM bosh metodisti.

**N. Do‘stmurodova** – Toshkent shahridagi 28-maktab o‘qituvchisi.

**M. Jo‘rayeva** – XTV tasarrufidagi aniq fanlarga ixtisoslashgan maktabning iqtisodiyot o‘qituvchisi

Ushbu o‘quv qo‘llanma iqtisod va soliqqa oid bilimlarni “**Vatan tuyg‘usi**”, ona tili, adabiyot, geografiya, tarix, matematika, mehnat va boshqa fanlar bo‘yicha darslar tarkibida o‘rganishni osonlashtirish maqsadida yaratildi.

O‘quv qo‘llanmadagi materiallarning istalganini alohida ajratib, muayyan fan bo‘yicha darslarda foydalanish mumkin.

**O‘quv qo‘llanmadagi muayyan soliq stavkalari va iqtisodiy ko‘rsatkichlar namuna sifatida berilgan, xolos. Ular vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib borishi mumkin, lekin bu o‘quv qo‘llanma mazmuna ta’sir qilmaydi.**

### SHARTLI BELGILAR:



– Soliqqa oid material



– Misol



– Tarixga nazar



– Mavzuga oid savol va topshiriqlar



– Amaliy vaziyat tahlili

UO‘K: 37.015.6(075)

KBK 65

S-32


Sariqov Sh.

Iqtisod va soliq saboqlari : umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 7-sinfi uchun o‘quv qo‘llanma / Sh. Sariqov, X. Sariqov. - Qayta ishlangan 3-nashr. - Toshkent : Yangiyo‘l Poligraf Servis, 2016. - 32 b.

UO‘K: 37.015.6(075)

KBK 65.261.4ya72

ISBN 978-9943-979-64-2



© «Yangiyo‘l poligraf servis», 2016.

© Sh. Sariqov, 2016.



## MUNDARIJA

### I bob. Bozor iqtisodiyoti

1.1. Nima? Qanday? Kim uchun? .....	4
1.2. Iqtisodiy tizimlar .....	5
1.3. Bozor iqtisodiyotining xususiyatlari .....	6
1.4. O'zbekiston bozor iqtisodiyoti sari .....	7

### II bob. Talab va taklif

2.1. Talab nima? .....	9
2.2. Talab qonuni .....	11
2.3. Taklif qonuni .....	12
2.4. Muvozanat narx .....	14

### III bob. Tadbirkorlik

3.1. Tadbirkorlik nima? .....	16
3.2. Tadbirkorlikni tashkil qilish .....	18

### IV bob. Tadbirkorlar to'laydigan soliqlar

4.1. Yagona soliq to'lovi va yagona yer solig'i .....	20
4.2. Aksiz va qo'shilgan qiymat soliqlari .....	23

### V bob. Davlat va iqtisodiyot

5.1. Davlatning iqtisodiyotda tutgan o'rni.....	24
5.2. Davlat budjeti .....	25
5.3. Yalpi milliy mahsulot .....	27
5.4. Pul muomalasi. Inflatsiya .....	28
5.5. Tashqi iqtisodiy aloqalar .....	31



## I BOB



## BOZOR IQTISODIYOTI

## 1.1. Nima? Qanday? Kim uchun?

Iqtisodiyotning asosiy vazifasi insoniyat ehtiyojlarini to'laroq qondirishdan iboratdir. Shu maqsadda mavjud resurslardan foydalanishning eng samarali va oqilona yo'llarini tanlash ehtiyoji tug'iladi.

Masalan, mamlakatdagi birgina qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish sohasida quyidagi savollarga javob izlashga to'g'ri keladi:

1. Qaysi qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish kerak?
2. Qancha miqdorda yetishtirgan ma'qul?
3. Qaysi ekin uchun qancha yer maydoni ajratilishi kerak?
4. Bu mahsulotlarni yetishtirish uchun qo'shimcha qancha yangi yerlarni o'zlashtirish kerak?
5. Mahsulotlarni yetishtirishda qancha qo'l mehnati va mashina-mexanizmlar xizmatidan foydalanish kerak?

6. Bu mahsulotlar kimlar tomonidan yetishtirilishi kerak?

7. Bu mahsulotlarning qanchasini chet davlatlarga sotish kerak?

Bunday savollar ro'yxatini yana istalgancha davom ettirish mumkin.

Agar tanlov muammosi butun mamlakat iqtisodiyoti miqyosida qaralganda, bunday turdagi yuzlab savollarga duch kelishimizni tasavvur qilish qiyin emas.

Shunday bo'lsa-da, bu savollar qanchalik ko'p bo'lmasin, iqtisodiyotda ularni umumlashtirib, quyidagi bir-biri bilan o'zaro bog'liq uchta savolga birlashtiriladi:

### 1. Nima ishlab chiqarish kerak?

Bu savol "Qaysi tovar va xizmatlar ishlab chiqarilishi kerak? Qancha ishlab chiqarilishi kerak?" degan savollarni o'z ichiga oladi.

### 2. Qanday ishlab chiqarish kerak?

Bu savol "Tovar va xizmatlar kim tomonidan ishlab chiqariladi? Qanday resurslar yordamida ishlab chiqarilishi kerak? Qanday texnologiyalarni qo'llab ishlab chiqarilishi kerak?" kabi savollarni o'z ichiga oladi.



### 3. Kim uchun ishlab chiqarilishi kerak?

Bu savol "Ishlab chiqariladigan tovar va xizmatlar kimga mo'ljallangan? Qanday taqsimlanadi? Kimlar undan naf ko'radi?" kabi savollarni qamrab oladi.

Kelgusida bu savollarni qisqacha **Nima? Qanday? Kim uchun?** deb ishlatamiz.

Bu uch savolga javob topish muammosi har qanday xo'jalik yuritish tizimi uchun umumiy bo'lib, uni har bir tizim o'zicha, turlicha hal qiladi.



1. Qishloq xo'jalik sohasida qanday savollarga duch kelinadi?
2. Bu savollarni qanday uch savolga birlashtirish mumkin?
3. Nima? Qanday? Kim uchun? savollari oilada qaysi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi?
4. Biror korxonada miqyosida bu uchta savolga javob topishga harakat qilib ko'ring.

## 1.2. Iqtisodiy tizimlar

Nima? Qanday? Kim uchun? Bu uchta savolga javobning mohiyatiga ko'ra xo'jalik yuritish tizimlari uch xil:

1. **An'anaviy iqtisodiyot;**
2. **Markazlashgan, buyruqbozlikka asoslangan, rejali iqtisodiyot;**
3. **Bozor iqtisodiyoti** ko'rinishida bo'ladi.

An'anaviy iqtisodiyot tizimi "Nima? Qanday? Kim uchun?" degan savollarga jamiyatdagi an'analarga asoslanib javob beradi.

Bunday iqtisodiyot turi juda qadimiy bo'lib, natural xo'jalik paydo bo'lishi bilan boshlangan. Hozirda esa qoloq, butun dunyodan ajralib yashayotgan qabilalarda saqlanib qolgan.

Markazlashgan, buyruqbozlikka asoslangan, rejali iqtisodiyotda "Nima? Qanday? Kim uchun?" savollariga markazlashgan holda rejalar va buyruqlar yordamida javob beriladi. Bunday iqtisodiy tizimda qaysi mahsulot ishlab chiqarish rejalashtirilib, yuqoridan buyruq ko'rinishida pastga tushiriladi.

Shuningdek, bu mahsulotlarning qay tariqa ishlab chiqarilishi ham oldindan rejalashtirilib, markazda o'tirgan bir guruh mutasaddilar tomonidan hal qilinadi. Ishlab chiqarilgan mahsulot hukumat tomonidan taqsimlanadi. Barcha ishlab chiqarish vositalari davlat mulki bo'lib, xususiy mulk taqiqlanadi. Ishlab chiqarishdan olingan foyda davlat ixtiyorida qoldiriladi va u ham rejaga asosan taqsimlanadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, markazlashgan, buyruqbozlikka asoslangan, rejali iqtisodiyot yuqorida qo'yilgan uch muammoning samarali yechimini topa olmas ekan.



1. Iqtisodiy tizimlar nima va ular nimasi bilan bir-biridan farqlanadi?
2. Qanday iqtisodiy tizimlarni bilasiz?



3. An'anaviy iqtisodiyot tizimini tasvirlang.
4. Markazlashgan, rejali iqtisodiyotni tasvirlang.
5. Nima sababdan markazlashgan iqtisodiyot tanazzulga yuz tutdi?

### 1.3. Bozor iqtisodiyotining xususiyatlari

Keling, oldingi paragrafda keltirilgan, mamlakat qishloq xo'jalik sohasi bo'yicha bozor iqtisodiyoti sharoitida "Nima ishlab chiqarish kerak?", "Qanday ishlab chiqarish kerak?", "Kim uchun ishlab chiqarish kerak?" degan savollarga birgalikda javob izlaylik.

Aniqlik uchun uzum yetishtirish sohasini muhokama qilamiz.

**1. Nima?** Aytingchi, uzumning qanday navlarini ekishni, qancha miqdorda ekishni mamlakatimizda kim belgilaydi? Albatta, hech kim. Har bir sohibkor dehqon bozorda oldingi yil qanday uzum navlari ko'proq sotilgani va yaxshi daromad berganiga qarab yetishtiradi. Unga hech kim: "Falon uzum navidan falon tonna yetishtir", – deb aytmaydi. Demak, bu savolga javobni bozor berar ekan.

**2. Qanday?** Toklarni qanday texnologiya bo'yicha parvarish qilish kerak? Qaysi mexanizmlardan foydalanish kerakligini kim belgilaydi? Buni ham hech kim aytmaydi. Bularni har bir sohibkorning o'zi erkin hal qiladi. Qanday qilganda uzum tannarxi past bo'lib, bozorda sotilganda ko'p foyda olinadi? Shu savoldan kelib chiqqan holda parvarish qilish texnologiyasini har bir sohibkorning o'zi belgilaydi.

**3. Kim uchun?** Yetishtirilgan uzum hosili qanday taqsimlanadi? Toshkent shahriga qancha uzum kerak? Qashqadaryo viloyati uchun qancha uzum kerak bo'ladi? Bu savollarga kim javob beradi? Albatta, bozor. Qaysi joyda uzumga ehtiyoj bor ekan, sohibkorlar o'sha joyga borib uzum sotadilar.

Bozorda qancha ko'p xilma-xil uzum navlari sotilsa, narx shuncha past bo'ladi, qancha kam miqdorda sotilsa, uzumning narxi shuncha yuqori bo'ladi. Demak, narxni ham hech kim tepadan belgilamaydi. **Narxni bozorning o'zi boshqarib turadi.**

Yetishtirilgan uzumni sotishdan tushgan daromadni qanday ishlatishni kim belgilaydi? Bu savolga ham bozor javob beradi.

Bu yil qaysi meva turi yaxshi daromad berdi? Kelasi yil nima kutilyapti? Bu savolga har bir sohibkor o'zicha mustaqil javob topadi va erkin ish yuritadi.

Bozor iqtisodiyoti tizimini tanlagan mamlakatlarda nafaqat yuqorida qaralgan bitta soha miqyosida, balki butun mamlakat iqtisodiyoti miqyosida qo'yilgan "Nima? Qanday? Kim uchun?" degan savollarga bozor javob beradi. Bu tizimning "bozor iqtisodiyoti" deb atalishining mohiyati ham shunda.

Ayting-chi, agar yuqorida tahlil qilingan vaziyatda bog'lar davlatniki bo'lganda, aytilganlarning hammasi to'g'ri bo'lar edimi? Yo'q, albatta.

Yuqorida aytilganlar bog'lar sohibkorlarning xususiy mulki bo'lib, ulardan o'z xohishiga ko'ra foydalangandagina o'rinli bo'lar edi.



Shundagina har bir sohibkor erkin faoliyat yuritib, tanlab, xohlagan narsasini yetishtiradi, bozordagi bu mahsulotga bo'lgan talabni qondiradi. Aks holda ularning tashabbuskorligi so'ndirilib, erkin iqtisodiy faoliyat ko'rsata olmas edilar.


Demak, bozor iqtisodiyotining asosiy xususiyatlaridan yana biri — bu **xususiy mulkchilik va erkin iqtisodiy faoliyatga asoslanganligidir**.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida turli xil mulk shakllari — xususiy, jamoa va davlat mulklari mavjud bo'lib, ular teng huquqli rivojlanadi.

Bozor iqtisodiyotining muhim xususiyatlaridan yana biri — bozor ishtirokchilarining iqtisodiy manfaatga, **foyda olishga bo'lgan intilishidir**.

Har bir fuqarodagi ko'proq foyda olishga bo'lgan intilish uning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantiradi, yangilikka undaydi. Bu esa, oxir-oqibat, ishlab chiqaruvchilar orasidagi raqobatni keltirib chiqaradi. Raqobat ham bozor iqtisodiyotining muhim xususiyatlaridan biridir.

Bozor iqtisodiyoti monopoliyani rad etadi. Chunki bunday — monopoliya bor joyda **erkin iqtisodiy faoliyat va raqobat** bo'la olmaydi.



1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida uzumchilik sohasidagi savollarga qanday javob beriladi?
2. Bu javoblarni markazlashgan, rejali iqtisodiyotdagisi bilan taqqoslang.
3. Bozor iqtisodiyotining asosiy xususiyatlarini sanang.
4. Erkin iqtisodiy faoliyat deganda nimani tushunasiz?
5. Nima sababdan monopoliya bozor iqtisodiyotiga zid keladi?
6. Yuqoridagilardan kelib chiqib, bozor iqtisodiyotiga qanday ta'rif bergan bo'lar edingiz?

#### 1.4. O'zbekiston bozor iqtisodiyoti sari

1991-yil Respublikamiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritib, sobiq ittifoq istibdodidan xalos bo'ldi. Endi xalqimiz oldida mustaqillik poydevorini mustahkamlash, hur va erkin fuqarolar jamiyatini qurishdek o'ta mas'uliyatli vazifa turar edi.

Bu vazifani bajarishning birdan-bir yo'li bozor iqtisodiyotiga o'tish edi. O'zbekistonning milliy, o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yangi bozor



iqtisodiyotiga o'tish yo'l-yo'riqlariga, bozor islohotlariga Prezidentimiz I. A. Karimov tomonidan ilgari surilgan beshta tamoyil asos qilib olindi. O'zining dolzarbligi va hayotiyliigi bilan tez orada mashhur bo'lib ketgan bu besh tamoyil naqadar to'g'ri tanlanganini Respublikamizning bu kungi ravnaqi ko'rsatib turibdi.

Bu tamoyillarning asosiy mohiyati Prezidentimiz I. A. Karimovning "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida" kitobida ochib berilgan. Bu tamoyillar quyidagilar:

**1. Iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi.** Bu tamoyilga ko'ra eng avvalo respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirish, so'ng esa boshqa ijtimoiy muammolarni yechishga kirishiladi.

**2. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlat bosh islohotchi bo'lishi.** Bu tamoyilga ko'ra davlat butun xalq manfaatlaridan kelib chiqib, islohot jarayonlarining tashabbuskori bo'ladi va ularni amalga oshirishga rahbarlik qiladi.

**3. Qonunlar va ularga rioya qilish ustuvorligi.** Bu tamoyilga ko'ra islohot jarayonlari tartibli, sinalgan va amaliy kuchga ega bo'lgan qonunlar asosida, ularga so'zsiz rioya qilish bilan amalga oshiriladi.

**4. Faol ijtimoiy siyosat yuritish.** Bu tamoyilga ko'ra bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlik ta'minlanadi. Aholining turmush darajasidan kelib chiqib, ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlari ko'riladi.

**5. Bozor iqtisodiyotiga sekin-asta, bosqichma-bosqich o'tish.** Bu tamoyilga ko'ra bozor islohotlari shoshilmasdan, har tomonlama puxta o'ylab, bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Ushbu tamoyillardan kelib chiqib, Respublikamizda shu o'tgan qisqa vaqt ichida olamshumul o'zgarishlar amalga oshirildi. Xalqimiz sobit qadamlar bilan bozor iqtisodiyoti tomon dadil bormoqda.


Mulkchilikni isloh qilish sohasida, davlat mulki hisoblanmish zavod va fabrikalar, maishiy xizmat ko'rsatish korxonalar, uy-joylar va boshqa davlat mulklari xususiylashtirilib, jamoa yoki xususiy mulkka aylantirildi.



1. O'zbekiston nima sababdan bozor iqtisodiyotiga o'tishni tanladi?
2. O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'l-yo'riqlari Prezidentimizning qaysi asarida ko'rsatib berilgan?
3. O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishining besh tamoyili nimalar?
4. O'tgan qisqa vaqt ichida Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga o'tish borasida qanday ishlar amalga oshirildi?
5. Respublikamizning bozor iqtisodiyotiga o'tishda to'g'ri yo'ldan ketayotganligi nimalarda namoyon bo'lyapti?



## II BOB



## TALAB VA TAKLIF

*Tuya bir tanga — qani bir tanga,  
Tuya ming tanga — mana ming tanga.  
Xalq maqoli*

## 2.1. Talab nima?

Bozor iqtisodiyotining eng asosiy xususiyatlaridan biri — narxlarning erkin bo'lishi, deb ta'kidlagan edik. Narxlarning erkin bo'lishi deganda ularning bozor tomonidan tartibga solib turilishi tushuniladi.

Lekin sizga ma'lumki, bozordagi sotuvchi o'z molini qimmatroq sotsam, xaridor esa bu molni arzonroq sotib olsam, deydi.

Xo'sh, bunday sharoitda narxlar qanday qilib bozor tomonidan tartibga solib turiladi?

Quyida shu haqda fikr yuritimiz va buni quyidagi vaziyatni tahlil qilishdan boshlaymiz (Bu yerdagi va keyingi joylardagi misollarda keltirilgan narxlar va miqdorlar shartli ravishda olinganligini e'tiborga olish lozim.):

Akromjon qishloqda dehqonchilik bilan shug'ullanadi. O'zi yetishtirgan ikki qop bodringni shahar bozoriga sotgani olib keldi. Bodringni qanchadan sotsam ekan, deb o'ylanib qoldi. Tezda bozorni bir aylanib, sifati jihatidan o'zinikiga o'xshash bodringlar 150-160 so'mdan sotilayotganini aniqladi va bodringni 160 so'mdan sota boshladi. Bir soat ichida bor yo'g'i 10 kg bodring sotdi. Shundan so'ng bodring narxini 150 so'mga tushirdi. Bu safar 1 soat ichida 20 kg sotdi. Qarasa, kech kiryapti, uyga qaytishi kerak. O'ylab o'tirmay bodringning narxini 140 so'mga tushirdi. Birpasda Akromjon bodring sotayotgan rasta oldida xaridorlar navbatga tizilib, qolgan 70 kg bodringni xarid qilib ketishdi.

Shunda u o'zi uchun ajoyib qonuniyatni "kashf qildi": **Mahsulotning narxi qancha past bo'lsa, unga bo'lgan talab shuncha yuqori bo'ladi. Mahsulot narxi qancha yuqori bo'lsa, unga bo'lgan talab shuncha past bo'ladi.**



Bu yerda **talab** deganda, xaridorlarning tovarni sotib olishga qodir bo'lgan ehtiyoji tushuniladi. Siz, odatda, bozorga shunchaki tomoshaga bormaysiz. Ni-manidir xarid qilish uchun pul ko'tarib borasiz va pulingiz shu tovarni sotib olishga yetgan taqdirdagina siz xaridorga aylanasiz. Shu sabab, xaridorning tovarni sotib olishga qodir bo'lgan ehtiyoji deganda, uning sotib olishga qurbi yetadigan ehtiyoji tushuniladi. Masalan, sizning 1 kg bodring sotib olishga ehtiyojigiz bor va cho'ntagingizda 150 so'm bor. Lekin bodring 160 so'm turadi. Shuning uchun siz 160 so'mlik bodring xaridori bo'la olmaysiz. Demak, sizning 160 so'mlik bodringga bo'lgan ehtiyojigiz talab bo'la olmaydi.

Siz faqat narxi 150 so'mlik yoki undan past bo'lgan bodringga xaridor bo'lishingiz mumkin bo'ladi. Ma'lumki, bozorda bodringni yana bir necha sotuvchilar turli xil narxlarda sotishyapti. Keyingi mulohazalarimizni davom ettirishdan oldin siz bilan bozorda sotilayotgan bodringlarning sifati bir xil deb, kelishib olamiz. Aks holda ularning ba'zilari o'rinli bo'lmasligi mumkin.

Agar biz butun bozor bo'yicha bir kun ichida sotilgan bodringlarni surishtirib, turli narxdagi bodringlarga qanchadan talab bo'lganligini aniqlab chiqsak, quyidagi **talab jadvali** deb atalmish jadvalga kelamiz:

No	Bodring narxi, so'm	Bodringga bo'lgan talab miqdori, tonna
1	120	10
2	130	8
3	140	6
4	150	4
5	160	2
6	170	0

Talab jadvali mazkur bozorda bodringga bo'lgan talabning narxga nisbatan o'zgarishini aniqlaydi.

Unga ko'ra, bozorda bodring narxi 120 so'm bo'lsa, xaridorlar 10 tonna sotib oladilar, narx 130 so'm bo'lsa, — 8 tonna, narx 140 so'm bo'lsa, — 6 tonna va hokazo 160 so'm bo'lsa, — 2 tonna va, nihoyat, bodring narxi 170 so'm bo'lsa, xaridorlar undan hech qancha sotib olmasliklarini aniqlash mumkin.

Biror tovarni sotib olishga qodir bo'lgan ehtiyoj, ya'ni talab miqdori, tovarning **narxidan** tashqari, xaridorlarning **daromadiga**, **didiga** va bu tovarni **sotib olishdan ko'riladigan naf** kabi omillarga ham bog'liq bo'lishi mumkin.



1. Bozorda xaridor va sotuvchi qanday maqsadda faoliyat yuritishadi?
2. Akromjon o'zi uchun qanday qonuniyatni "kashf etdi"?
3. Talab deganda nima tushuniladi?
4. Talab bilan ehtiyojning nima farqi bor?



5. Butun bozor bo'yicha biror mahsulotga bo'lgan talabni qanday aniqlasa bo'ladi?
6. Bozorda biror mahsulotga bo'lgan talab, narxdan tashqari, yana nimalarga bog'liq bo'lishi mumkin?

## 2.2. Talab qonuni

Keling, oldingi paragrafda Akromjon "kashf qilgan" qonuniyatga yana bir bor qaytaylik:

Bu qonuniyatni Akromjon o'zi uchun bozorda, bevosita oldi-sotdi jarayonida "kashf qilgan" bo'lsa, iqtisodiyotda bu qonun bir necha asr oldin kashf etilgan bo'lib, o'z oti bilan **talab qonuni** deb ataladi va u quyidagicha ko'rinishda tavsiflansa to'g'riroq bo'ladi:

Boshqa sharoitlar o'zgarmagan holda, mahsulotning narxi qancha past bo'lsa, unga bo'lgan talab shuncha yuqori bo'ladi, mahsulotning narxi qancha yuqori bo'lsa, unga bo'lgan talab shuncha past bo'ladi.

Talab qonuni, tovar narxi bilan unga bo'lgan talab o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni, ya'ni talabning narxga nisbatan o'zgarishini aniqlaydi. Bu o'zaro bog'liqlik ko'pincha jadval ko'rinishida beriladi.


Masalan, oldingi paragrafda tuzgan jadvalimiz mazkur bozordagi bodring narxi bilan unga bo'lgan talab o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlaydi (2.1. – mavzudagi jadvalga qarang).

Bodringga bo'lgan talab miqdorining narxga nisbatan o'zgarishi, talab qonuni-ga bo'ysunishi kerak. Haqiqatan, 2.1. – mavzudagi jadvaldan ko'rinadiki, mazkur bozorda bodring narxi qancha past bo'lsa, unga bo'lgan talab shunchalik yuqori bo'lib, ko'p miqdorda sotilgan (masalan, bodring narxi 120 so'm bo'lganda, 10 tonna sotilgan), bodring narxi qancha yuqori bo'lsa, unga bo'lgan talab shunchalik past bo'lib, kam miqdorda sotilgan (masalan, bodring narxi 160 so'm bo'lganda bor yo'g'i 2 tonna, 170 so'm bo'lganda esa, hech qancha sotilmagan).

Tovarga bo'lgan talab miqdorining narxga nisbatan o'zgarishi grafik yordamida tasvirlanganda, ancha ko'rgazmali bo'lib, talab qonuni yaqqol ko'zga tashlanadi.

Keling, yuqoridagi jadvalga ko'ra, grafik chizishga urinib ko'raylik. Buning uchun tekislikda *Op* o'qini vertikal, *Oq* o'qini gorizontall qilib chizamiz. *Op* o'qqa tovarning narxlarini so'mlarda belgilaymiz. *Oq* o'qqa esa tovarga bo'lgan talab miqdorini tonnalarda belgilab chiqamiz. Shundan so'ng jadvalga ko'ra, koordinatalari (10;120), (8;130), (6;140), (4;150), (2;160), (0;170) bo'lgan nuqtalarni tekislikda belgilaymiz va bu nuqtalarni tutashtirib chiqamiz. Natijada, qandaydir to'g'ri chiziqqa ega bo'lamiz. Bu chiziq — **talab chizig'i**, deb ataladi.





Bu grafikdan talabning narxga nisbatan oʻzgarishi yaqqol koʻrinib turibdi. Yaʼni,  $O_p$  oʻq boʻyicha narx pastga tushgani sari,  $O_q$  oʻq boʻyicha talab ortib boryapti.

Tovar narxi bilan bu tovarga boʻlgan talab miqdori orasidagi bogʻlanishni nafaqat jadval, balki funksiya koʻrinishida ham tasvirlash mumkin.

Kichik vaqt oraligʻi qaralayotganda, odatda, talab funksiyasi chiziqli funksiya koʻrinishida boʻladi. Masalan, talab jadvalida berilgan bodring narxi bilan unga boʻlgan talab  $p = -5q + 170$  chiziqli funksiya koʻrinishidagi talab funksiyasidan iborat.

Umumiy holda chiziqli **talab funksiyasi**

$$p = -kq + b$$

koʻrinishda boʻladi. Bu yerda  $p$  — tovar narxi,  $q$  esa bu tovarga boʻlgan taklif miqdorini ifodalovchi oʻzgaruvchilar,  $k$  va  $b$  oʻzgarmas musbat sonlar.



1. Talab nima? Talab qonunini misollarda tushuntirib bering.
2. Talab jadvali qanday tuziladi? Talab funksiyasi nimani anglatadi?
3. Talab chizigʻi nima va u qanday chiziladi?
4. Qanday hollarda talab funksiyasi chiziqli funksiya koʻrinishida boʻladi?

### 2.3. Taklif qonuni

Oldingi paragraflarda bozordagi tovar narxining xaridorlarga qarab oʻzgarishini tahlil qilgan edik.

Endi tovar narxiga sotuvchilar tomonidan boʻladigan taʼsirni koʻrib chiqaylik. Bu yerda ham bozorda sotilayotgan bodringning sifatini bir xil deb kelishib olamiz.

Aytaylik, bir bozorda bodring 150 soʻmdan, ikkinchisida 160 soʻmdan sotilyapti. Siz sotuvchi sifatida qaysi bozorga borib bodring sotgan boʻlar edingiz?



Albatta, bodring qimmatroq sotilayotgan ikkinchi bozorga borib sotgan bo'lar edingiz. Nafaqat siz, balki boshqa sotuvchilar ham o'z mahsulotlarini qimmatroq bozorga olib borib sotgilari keladi.

Demak, bozorda tovarning narxi qancha yuqori bo'lsa, sotuvchilar bu bozorga shuncha ko'p miqdorda tovar olib keladilar, degan xulosani aytishimiz mumkin ekan.

Sotuvchilarning bozorga sotish uchun olib kelgan tovar miqdori iqtisodiyotda taklif, deb ataladi.

Shunday qilib, yuqoridagi xulosamizni boshqacha:

**Boshqa sharoitlar o'zgarmagan holda, bozorda tovarning narxi qancha yuqori bo'lsa, sotuvchilar bu tovardan shuncha ko'p taklif qiladilar, tovar narxi qancha past bo'lsa, taklif ham shuncha kam bo'ladi,** deb ifodalashimiz ham mumkin.

Bu — **taklif qonuni** deb yuritiladi.

Agar Akromjon bodring sotayotgan bozorga borib, bir kun ichida turli narxlardagi bodringlardan bozorga jami qanchadan taklif qilishganini surishtirib aniqlasak, **taklif jadvali** deb atalmish quyidagi jadvalga kelamiz:

Taklif jadvalingizdan ko'rib turganingizdek, qimmat narxda taklif qilinayotgan bodring miqdori ko'p, narx kamayib borgan sari taklif qilinayotgan bodring miqdori ham kamayib boryapti, ya'ni bozorda taklif qonuni "ishlayapti".

No	Bodring narxi, so'm	Taklif qilingan bodring miqdori, tonna
1	180	14
2	160	10
3	140	6
4	120	2
5	110	0

Taklif jadvalidagi ma'lumotlardan foydalanib, oldingi paragrafda talab jadvali uchun bajarilgan ishlarni amalga oshiramiz. Tekislikda nuqtalarni belgilab, tutashtirib chiqsak, to'g'ri chiziqni hosil qilamiz. Bu chiziq taklif chizig'i deb yuritiladi.


Taklif qilinayotgan tovar miqdori bilan uning narxi orasidagi bog'lanishni taklif funksiyasi ifodalaydi.

Taklif funksiyasining grafigiga **taklif chizig'i** deb ataladi.

Kichik vaqt oralig'i qaralayotganda odatda taklif funksiyasi chiziqli funksiya ko'rinishida bo'ladi.

Masalan, yuqoridagi taklif jadvalida berilgan bodring narxi bilan taklifi orasidagi bog'lanish,  $p = 5q + 110$  chiziqli funksiya ko'rinishidagi **taklif funksiyasidan** iborat.





Umumiy holda chiziqli taklif funksiyasi  $p = k_1q + b_1$  ko'rinishda bo'ladi. Bu yerda  $p$  — tovar narxini,  $q$  — taklif miqdorini ifodalovchi o'zgaruvchilar,  $k_1$  va  $b_1$  — o'zgarmas musbat sonlar.



1. Taklif nima?
2. Taklif qonunini misollarda tushuntirib bering.
3. Taklif jadvali qanday tuziladi?
4. Taklif funksiyasi nimani anglatadi?
5. Taklif chizig'i nima va u qanday chiziladi?
6. Qanday hollarda taklif funksiyasi chiziqli funksiya ko'rinishida bo'lishi mumkin?


## 2.4. Muvozanat narx

Keling, oldingi paragrafda ko'rilgan bozor misolida bodringga bo'lgan talab va taklif haqidagi fikrlarimizni davom ettiraylik.

Oldingi paragrafda aniqlaganimizga ko'ra, mazkur bozorda bodringga bo'lgan talab  $p = -5q + 170$  ko'rinishdagi funksiya bilan, taklif esa  $p = 5q + 110$  ko'rinishdagi funksiya bilan ifodalanar edi.

Talab funksiyasi jami xaridorlarning narxga bog'liq ravishda tovarni xarid qilish imkoniyatlarini ifodalaydi. Taklif funksiyasi esa jami sotuvchilarning narxga bog'liq ravishda tovarni bozorda sotish imkoniyatlarini, xohishlarini ifodalaydi. Demak, talab va taklif funksiyalari har ikki tomonning xohishlarini umumshtirib ifodalay ekan. Narx qanday bo'lganda har ikki tomonning fikri, xohishi bir joydan chiqadi? Keling, bu funksiyalarning grafiklarini bitta koordinatalar tekisligida chizaylik.





Endi quyidagi savollarga javob topaylik:

Aytingchi, agar bu bozorda bodring 120 so'mdan sotilsa, nima bo'ladi? Narx 120 so'mdan bo'lganda, bunday bodringga bo'lgan talab miqdori 10 tonna, taklif esa 2 tonnani tashkil qiladi.

Demak, taklif qilingan 2 tonna bodring tezda sotilib, xaridorlarning yana 8 tonnalik talabi qondirilmay qoladi, ya'ni mahsulot taqchilligi yuzaga keladi. Bozordagi bunday holatga **taqchil bozor** holati deb ataladi.

Agarda bodring 160 so'mdan sotilsa, nima bo'ladi? Bu holda bunday narxdagi bodringga bo'lgan talab miqdori 2 tonna, taklif esa 10 tonnani tashkil qiladi. Natijada, taklif qilingan bodringning faqat 2 tonnasi sotib olinib, 8 tonnasi ortib qoladi. Bozordagi bunday holatga **to'yingan bozor**, deb ataladi.

Endi bodring narxi 140 so'm bo'lgan holatni kuzataylik. Bu holatda bodringga bo'lgan talab va taklif miqdorlari o'zaro teng, ya'ni 6 tonnani tashkil qiladi.

Bunda sotuvchilar tomonidan taklif qilingan 6 tonna bodringning hammasi 140 so'm narxda xaridorlar tomonidan sotib olinadi va ham xaridorlar uchun, ham sotuvchilar uchun ma'qul tushadi.

Tovarga bo'lgan talab va taklif miqdori teng bo'lgan holatdagi tovar narxiga **muvozanat narx** yoki **bozor narxi** deb ataladi.

Odatda, tovarning narxi boshqa bir qator omillar ta'sirida bozor narxi atrofida tebranib, goh tushib, goh ko'tarilib turadi. Agar narx ko'tarilib ketsa yoki tushib ketsa, bozor mexanizmi ishga tushib, uni yana muvozanat narxga qaytaradi.



1. Taqchil bozor holati nima va u qachon vujudga keladi?
2. To'yingan bozor holati nima va u qachon vujudga keladi?
3. Tovarning bozor narxi deb nimaga aytiladi?
4. Qanday omillar ta'siri ostida bozor narxi tushishi yoki ko'tarilishi mumkin?
5. Bozor mexanizmi qanday qilib narxlarni bozor narxi atrofida tutib turadi?



## III BOB



## TADBIRKORLIK

## 3.1. Tadbirkorlik nima?

Agar e'tibor bergan bo'lsangiz, keyingi paytlarda tadbirkor, tadbirkorlik degan so'zlar tez-tez quloqqa chalinadigan va har ikki kishining biri tadbirkorlik bilan shug'ullanadigan yoki, hech bo'lmaganda, u haqda o'ylaydigan bo'lib qoldi.

Xo'sh, tadbirkorlikning o'zi nima? Nima sababdan odamlar unga juda qiziqib qoldilar? Quyida shular haqida fikr yuritamiz.

**Tadbirkorlik** deganda, kishilarning foyda olish maqsadida o'z mablag'lari, mulki, bilimi va imkoniyatlarini ishga solib, tovar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish faoliyati tushuniladi.

Tadbirkorlikni, boshqacha, **ishbilarmonlik** yoki **biznes** deb ham atashadi.

Bunday faoliyat bilan shug'ullanuvchilarni **tadbirkor**, **ishbilarmon** yoki **biznesmenlar** deb atashadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik tabiiy, kapital va mehnat omillari bilan bir qatorda ishlab chiqarishning asosiy omiliga aylanadi.

Tadbirkorlik faoliyatining ishlab chiqarish, tijorat-kommersiya, moliyaviy, vositachilik va sug'urta kabi turlari bor.

**1. Ishlab chiqarish faoliyati.** Bu holda tadbirkor bevosita ishlab chiqaruvchi sifatida faoliyat ko'rsatadi. Ishlab chiqarishning tabiiy, kapital va mehnat omillarini birlashtirib harakatga keltiradi. Ishlab chiqarish vositalari — yer, bino, inshoot, asbob-uskunalar, xomashyo sotib oladi, ishchi xodimlarni yollaydi. Turli xildagi tovarlar ishlab chiqaradi, rang-barang xizmatlar ko'rsatadi. Ishlab chiqargan mahsulotlarini iste'molchilarga, xaridorlarga sotadi.



**2. Tijorat.** Tadbirkorlikning bunday turi bilan shug'ullanuvchilar, ishlab chiqaruvchi korxonalaridan tayyor tovar sotib oladilar, so'ng esa iste'molchilarga, xaridorlarga sotadilar. Albatta, bu holda tovarning sotilish narxi, uning xarid narxidan yuqori bo'ladi. Bu narxlarning farqi tadbirkorlik foydasi sifatida tadbirkor tomonidan o'zlashtiriladi.

**3. Moliyaviy tadbirkorlik** — bu tijoratga o'xshab ketadi. Faqat moliyaviy tadbirkorlikda tovar oldi-sotdisi o'rniga pul va qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi bilan shug'ullanishadi. Pul mablag'lari qarzga beriladi. Chet el valutalari, aksiya va boshqa qimmatli qog'ozlar sotib olinadi va sotiladi.

**4. Vositachilik.** Bunday tadbirkorlarni avvallari dallollar deb atashgan. Dallollar ko'pgina mol bozorlarida faoliyat ko'rsatishgan. Dallol mol egasi va mol xaridorining o'rtasidagi oldi-sotdi jarayonida vositachilik qilgan va shuning evaziga xizmat haqi olgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida vositachi tadbirkorlarning ham o'z o'rnini bor. Ular xaridor va sotuvchi o'rtasidagi oldi-sotdi jarayonlarini tezlashtiradi. Bozorni yaxshi biladi. Qayerda qanday tovar, qanday narxda sotilayotganligi haqida ma'lumotga ega bo'ladi. Ma'lumot esa pul turadi.

**5. Sug'urta.** Tadbirkorlikning bunday turi hozirda keng tarqalgan. Masalan, bir korxonadan bankdan qarz olyapti. Bunday holatda bank korxonadan, mabodo qarz foizi bilan o'z vaqtida qaytarilmasa, bu mablag'ni qarz olgan korxonadan o'rniga boshqa biror shaxs (korxonadan) qaytara olishi haqidagi kafolat xati talab qilishga haqli. Shunda sug'urta faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar ma'lum haq evaziga bunday majburiyatni o'z bo'yinlariga oladilar.

Hozirda, qarz sug'urtasidan tashqari mulk sug'urtasi, hayot sug'urtasi, meditsina sug'urtasi kabi sug'urta shakllari ham bor. Bunday sug'urta turlarida muttasil to'lab boriladigan sug'urta badallari evaziga biror kor-hol yuz berganda yetkazilgan zarar yoki yo'qotishning o'rnini qoplanadi.



1. Tadbirkorlik deganda nimani tushunasiz?
2. Tadbirkorlikni yana qanday nomlar bilan atashadi?
3. Oddiy mehnat faoliyati bilan tadbirkorlik orasida qanday farq bor?
4. Ishlab chiqarish faoliyatining mohiyatini tushuntiring.
5. Ishlab chiqarishda foyda kafolatlangan bo'ladimi?
6. Tijorat deganda nimani tushunasiz?
7. Tijoratning qanday ijobiy va salbiy tomonlarini bilasiz?
8. Tijorat va vositachilikning qanday o'xshash va farqli tomonlari bor?
9. Moliyaviy tadbirkorlik deganda nimani tushunasiz?
10. Sug'urta nima?



### 3.2. Tadbirkorlikni tashkil qilish

Tadbirkorlikni tashkil qilish bir nechta shakllarda bo'lishi mumkin. Ularning eng soddasi – bu **yakka tartibdagi tadbirkorlik**dir. Bu holda tadbirkor yakka o'zi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadi, o'z ishini o'zi tashkil qiladi. Bunday faoliyat bilan shug'ullanishi uchun joylardagi hokimiyatlardan tegishli ruxsatnoma (**patent**) olish yetarli bo'ladi. Yakka tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi shaxs faoliyati uchun mablag'ni o'z hisobidan ishlatadi. Ishining natijasiga ham yolg'iz o'zi mas'ul bo'ladi. Yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatining imkoniyatlari juda chegaralangan bo'lib, uni **mayda biznesga** kiritishadi. Agar siz oldingizga tadbirkorlik bilan astoydil shug'ullanishni maqsad qilib qo'ygan bo'lsangiz, tadbirkorlikni **firma (korxonona)** ko'rinishida tashkil qilganingiz ma'qul bo'ladi.

Firmada (korxonada) tadbirkorlik faoliyati amalga oshiriladi. Unda foyda olish maqsadida turli xil ehtiyojlarni qondirish uchun tovar va xizmatlar ishlab chiqariladi.

Firmalarning o'z **nomi, muhri va belgilari** bo'lib, tegishli davlat organlari tomonidan **ro'yxatga olinadi**. Banklarda o'zlariga tegishli **hisob raqamlari** bo'lib, barcha pul bilan bog'liq ishlar bank orqali amalga oshiriladi.

Firmalar (korxonalar) tashkiliy tuzilishiga, faoliyat turlariga qarab turli xil ko'rinishlarda bo'lishi mumkin.

**Xususiy firmalar.** Xususiy firmalar asosida xususiy mulk yotadi. Firmalar bu mulk yakka shaxsning yoki ko'pchilikning mulki ekanligiga qarab ham ajratiladi. Egasi yakka shaxs bo'lgan xususiy firmada, faqatgina shu shaxsning o'zi ishlashi shart emas. Unda istalgancha odam ishlashi mumkin. Bunday turdagi xususiy firmalardagi faoliyat ham kichik biznesga misol bo'ladi, chunki ularning faoliyat miqyosi chegaralangan bo'lib, tez ochilib va yopilib turadi.

Ma'lumki, katta miqyodagi ishlar katta boshlang'ich mablag' talab qiladi. Bunday ishlarni amalga oshirish uchun hamjihatlikda ish ko'rishlariga to'g'ri keladi. Shu bois **shirkat** shaklidagi xususiy firmalar tashkil qilinadi. Bunday firmalar bir necha fuqaroning – jismoniy shaxsning mulki asosida tuziladi. Shirkatning tashkilotchilari uning **ta'sischilari** deb ataladi. Ta'sischilar firmaning boshlang'ich mablag'iga o'z pul mablag'lari va mol-mulklari bilan hissa qo'shadilar. Bunday shirkatlar faoliyatining natijasidan olinadigan foyda ham, zarar ham o'rtada ma'lum kelishilgan qoidaga ko'ra baham ko'riladi. Bunday firmalar faoliyatida ko'rilgan zararining ta'sischilar tomonidan qoplanishiga qarab, **mas'uliyati cheklangan firma va mas'uliyati cheklanmagan firma** deb yuritiladi. Mas'uliyati





cheklangan firma singanda, uning ta'sischilari ko'rilgan zararni boshlang'ich kapitalga qo'shgan hissalarini hajmida ko'tarishadi. Mas'uliyati cheklanmagan firma ta'sischilari esa, bu zararni birgalashib ko'tarishadi. Hatto, zarurat tug'ilganda, o'z shaxsiy mulklarini sotib bo'lsa-da, firma zararini qoplaydilar. Mas'uliyati cheklangan firmada esa, ta'sischilar firma majburiyatlariga faqat qo'shgan hissalarini hajmida javob berishadi.

Mas'uliyati cheklangan firmalar katta korxonalar miqyosida **aksiyadorlar jamiyati** deb yuritiladi. Aksiyadorlar jamiyati o'z boshlang'ich (**ustav**) **kapitaliga** qarab **qimmatli qog'oz**, ya'ni o'z **aksiyasini** chiqaradi. Bu aksiyani sotib olgan har bir kishi bu korxonaning mulkdoriga aylanadi. Korxonada esa, o'z navbatida, har yilgi foydasidan unga, sotib olgan aksiyasiga mos ravishda, **dividend** to'laydi.

Agar aksiyalar istalgan shaxsga sotilsa, aksiyadorlar jamiyati— **ochiq aksiyadorlar jamiyati** deb, agar faqat korxonada ta'sischilariga sotilsa, **yopiq aksiyadorlar jamiyati** deb ataladi.



1. Yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati qanday tashkil qilinadi?
2. Firma nima? Firma qanday turlarga bo'linadi?
3. Xususiy firma bilan shirkatning qanday farqi bor?
4. Mas'uliyati cheklangan va mas'uliyati cheklanmagan firmalar haqida nima bilasiz?
5. Aksiyadorlar jamiyatining tashkiliy tomonlari haqida nima bilasiz?
6. Qanday xususiyatiga qarab aksiyadorlar jamiyati ochiq yoki yopiq shaklda bo'ladi?



## IV BOB



## TADBIRKORLAR TO'LAYDIGAN SOLIQLAR

### 4.1. Yagona soliq to'lovi va yagona yer solig'i

Yagona soliq to'lovi yalpi tushum – daromaddan to'lanadi. Qonunga ko'ra, yagona soliq to'lovini kichik korxonalar, ulgurji, chakana savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari (ya'ni oshxona, kafe, restoranlar) to'laydi.

Agar savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari asosiy faoliyati bilan bir qatorda boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullansa, ular o'sha faoliyat turiga oid alohida hisob yuritib, yagona soliq to'lovini to'laydi.

Shuningdek, asosiy faoliyat turi boshqa bo'la turib, savdo-sotiq va umumiy ovqatlanish xizmatini ko'rsatuvchi firmalar, korxonalar ham o'sha faoliyat uchun alohida soliq to'lashlari lozim.

Yagona soliq to'lovi stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi. Bunda korxonalarining joylashgan joyi va boshqa o'ziga xos shart-sharoiti hisobga olinib, soliqlar tabaqalashtirilgan stavkalar bo'yicha to'lanadi.

Quyidagi jadvalda yagona soliq to'lovi tabaqalashtirilgan stavkalari berilgan.

#### Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining yagona soliq to'lovi tabaqalashtirilgan soliq stavkalari (2013-yil)

To'lovchilar	Quyidagi hududlarda joylashgan korxonalar uchun soliq stavkalari		
	Aholi soni 100 ming va undan ko'p shaharlar	Boshqa aholi punktlari	Borish qiyin bo'lgan tog'li joylarda
Chakana savdo korxonalari	4	2	1
Ulgurji savdo korxonalari		5	
Umumiy ovqatlanish korxonalari		10	
Dorixonalar	3	2	1
Ta'lim muassasalariga xizmat ko'rsatuvchi umumiy ovqatlanish korxonalari		8	





### 1- Misol.

Toshkent shahrida joylashgan Lazzat firmasi asosiy faoliyati oshxona hisoblanib, bir oylik savdo tushumi summasi 4 million so'mni tashkil etgan. Ushbu firmaning qo'shimcha savdo faoliyatidan bir oylik sotgan tushum miqdori (yalpi tushum) 2 million so'mni tashkil qiladi. Belgilangan soliq stavkasi oshxona faoliyati uchun 10 foiz va savdo faoliyati uchun 4 foiz. To'lanishi lozim bo'lgan bir oylik yagona soliq to'lovi summasi 520 000 so'mni tashkil qiladi va quyidagicha aniqlanadi:

$$1) 4\ 000\ 000 \cdot 10\% = 400\ 000 \text{ so'm.}$$

$$2) 2\ 000\ 000 \cdot 4\% = 80\ 000 \text{ so'm.}$$


$$\text{jami YaST} = 400\ 000 + 120\ 000 = 520\ 000 \text{ so'm.}$$

Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalariga yagona soliq to'lovi solig'idan boshqa soliqqa o'tolmagani kabi, qishloq xo'jaligi korxonalariga **yagona yer solig'idan** boshqa soliq tizimiga o'tish huquqiga ega emaslar. Bunday korxonalar aksiz va import tovarlari uchun QQSdan tashqari faqatgina yagona yer solig'ini to'laydilar. Qishloq xo'jaligi korxonalariga boshqa faoliyat turlari bilan ham shug'ullansa, o'sha faoliyat turi bo'yicha alohida soliq to'laydilar.

2014-yilning 1-yanvaridan iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasi 6 foiz belgilandi.

Yagona yer solig'i qishloq xo'jaligi yerlarining normativ qiymatidan (hujjatdagi narxidan) kelib chiqqan holda 6 foiz stavka miqdorida hisoblanadi.

Soliq kodeksiga ko'ra, bino-inshootlar ostidagi, ilmiy va o'quv maqsadlarida foydalaniladigan va shunga o'xshash ayrim kategoriyadagi yerlar yagona yer solig'idan ozod qilinadilar.







### 1- Misol.

Fermer xo'jaligi tasarrufidagi yerning umumiy miqdori 10 gektarni tashkil qilsin. Ushbu fermer yerining normativ qiymati har bir gektar uchun 800 ming so'm qilib belgilangan. Soliq stavksi 6,0 foiz. To'lanishi lozim bo'lgan yagona yer soliq'i yillik summasi quyidagicha aniqlanadi:

$$800000 \cdot 6,0\% \cdot 10 = 480\,000 \text{ so'm.}$$



*Soliqlarning obyektiv zarurligi davlatining bajaradigan qator funksiyalarini mablag' bilan ta'minlashning zarurligidan kelib chiqadi. Davlatning bajaradigan funksiyalari ko'p bo'lib, bozor iqtisodi rivojlana borishi bilan ba'zi funksiyalar yo'qola borsa, ba'zilari paydo bo'ladi. Masalan, ma'muriy-buyruqbozlik davrida xalq xo'jaligini rivojlantirish funksiyasi – u korxonalar, sohalarni butunlay budjet bilan moliyalashtirar edi. Har xil mulk shaklidagi xo'jaliklarning paydo bo'lishi hozirgi sharoitda ular faoliyatiga davlatning aralashuvini yoqtirmaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir xo'jalik o'zi erkin faoliyat ko'rsatadi va butun faoliyatiga o'zi javob beradi. Davlatning aralashuvi qonun bilan, ya'ni soliq orqali amalga oshiriladi.*

*Soliqlarning funksiyalari masalasida katta bahslashuvlar mavjud, lekin yagona bir fikrga kelingan emas. Ko'pchilik iqtisodchilar soliq'larga boshqaruvchi, rag'batlantiruvchi nazorat funksiyalari xos deb ta'rif berishadi.*

1. Yuqoridagi matndan nimalarni tushundingiz?
2. "Davlatning funksiyalari" deganda nima nazarda tutilgan deb o'ylaysiz?
3. Soliqlarning funksiyalari borasida mulohaza yuriting. Fikrlaringizni sinfdoshlaringiz bilan o'rtoqlashing.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish doirasida qat'iy belgilangan soliq tadbirkorlik faoliyatining turi va soliq to'lovchining faoliyatni amalga oshirish joyiga qarab, belgilangan stavkalar bo'yicha to'lanadi.

Faoliyatning bir necha turi bilan shug'ullanuvchi soliq to'lovchilar qat'iy belgilangan soliqni faoliyatning har bir turi uchun mazkur turdagi faoliyatga nisbatan belgilangan stavkalar bo'yicha alohida-alohida to'laydilar.



1. Yagona soliq to'lovi qanday belgilangan?
2. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari qanaqa soliq to'laydilar?
3. Ular aksiz va import tovarlarining QQSidan ozod etiladimi?
4. Yagona soliq to'lovini belgilashda nimalarga e'tibor berilganligini jadvalga qarab tushuntirib bering.
5. Qanday yuridik shaxslar yagona yer solig'ining to'lovchilari hisoblanadi?
6. Yagona yer solig'idan qanday imtiyozlar ko'zda tutilgan?
7. Yakka tartibdagi tadbirkorlar qanday soliq to'laydilar?



## 4.2. Aksiz va qo'shilgan qiymat soliqlari

Har qanday firma va korxonaning asosiy maqsadi mahsulot yoki xizmat ishlab chiqarish, uni bozorga olib chiqish va sotishdan iborat. Buni siz yaxshi bilasiz. O'sha mahsulot yoki xizmatni ishlab chiqarish uchun, o'z navbatida, korxonaga ma'lum miqdorda xomashyo, tovar va xizmatlar sotib oladi. Tayyor bo'lgan mahsulotni yetkazib beradi. Bularning barchasiga ma'lum miqdorda mablag' sarflanadi. Demak, ishlab chiqarish, yetkazib berish va sotish jarayonida qilingan xarajatlar mahsulot va xizmat qiymatiga qo'shiladi. Ana shu qo'shilgan qiymatdan davlat tomonidan undiriluvchi soliq — QQS deyiladi.

Bunday qaraganda QQSni mahsulot yoki xizmat ishlab chiqargan korxonaga to'lagandek, aslida esa korxonalar QQSni mahsulot yoki xizmatning narxiga qo'shib qo'yadi. Natijada, QQSning haqiqiy to'lovchisi iste'molchi bo'ladi.



Soliq kodeksining 198-moddasiga ko'ra QQS mahsulot yoki xizmatlarni realizatsiya qilish oboroti (aylanmasi), mahsulot va xizmatlar importidan to'lanadi. Mahsulot yoki xizmatlarni realizatsiya qilish deganda, mahsulot yoki xizmatlarning iste'molchilarga yetkazilishi tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, mahsulot yoki xizmat iste'molchi e'tiboriga havola qilingan paytdan boshlab, ishlab chiqaruvchi QQSni zimmasiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qaroriga ko'ra mamlakatimizda QQSning stavkasi 2000-yildan boshlab 20% qilib belgilangan.

Aylanma (oborot) solig'i va sotuvdan olinadigan soliq o'rniga QQS bilan birga 1992-yil aksiz solig'i kiritilgan. Aksiz solig'i QQSdan farqli, har qanday tovar va xizmatlardan emas, balki belgilangan bir nechta mahsulot turlaridagina to'lanadi. Quyidagi mahsulotlardan aksiz solig'i olinadi:


- alkogol mahsulotlari;
- tamaki mahsulotlari;
- o'simlik(paxta) yog'i;
- etil spirti;
- oltin va kumushdan yasalgan buyumlar;
- neft mahsulotlari;
- "Djeneral Motors O'zbekiston" avtomobillari.



1. Qo'shilgan qiymat solig'i nima?
2. Qo'shilgan qiymat solig'ini kimlar to'laydi?
3. Qanday mahsulot va xizmatlar QQSdan ozod bo'ladi?
4. Mahsulot yoki xizmatlarni realizatsiya qilish oboroti deganda nima tushuniladi?
5. Aksiz solig'i qanday mahsulotlardan olinadi?



## V BOB



## DAVLAT VA IQTISODIYOT

## 5.1. Davlatning iqtisodiyotda tutgan o'rnini

Ma'lumki, davlat iqtisodiyotning shunchaki kuzatuvchi sifatidagi ishtirokchisi bo'lib qolmasdan, uning o'zi ham iqtisodiyot bilan shug'ullanadi. Butun davlatga, millatga xos bo'lgan manfaatlarni ko'zlaydi. Shu jihatlari bilan davlat iqtisodiyotning, bozorning faol qatnashchisiga aylanadi.

Davlat, tabiiy resurslar egasi sifatida, ishlab chiqaruvchilarga ularni sotadi. Davlat o'z ehtiyojlari uchun ishlab chiqaruvchilardan tovar va xizmatlar, aholidan esa mehnat resurslari, ishchi kuchi sotib oladi. O'z navbatida, ularga o'z xizmatlarini taklif qiladi.

Bu xizmatlar sog'liqni saqlash, fan va ta'lim, tabiatni muhofaza qilish, transport, yo'l xo'jaligi, ijtimoiy himoya, mudofaa va boshqa bir qancha sohalar bo'yicha amalga oshiriladi. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun davlat ishlab chiqaruvchilar va aholidan turli xil soliqlar ko'rinishida haq oladi. Davlat ishlab chiqaruvchi korxonalaridan **foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, yer solig'i, mulk solig'i** deb ataladigan soliqlarni, aholidan esa **jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, mol-mulk solig'i, yer solig'i** deb ataladigan soliqlarni undiradi.

Davlatning iqtisodiyotdagi ishtiroki yuqorida aytilganlar bilan chegaralanib qolmasdan, davlat eng avvalo iqtisodiyotni tartibga solib turuvchi kuch sifatida faoliyat ko'rsatadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida umumdavlat, umummillat va umumiqtisodiy manfaatlardan kelib chiqib, bozor tizimini, tadbirkorlikni himoya qiladi, raqobat va erkin iqtisodiy faoliyat uchun keng yo'l ochib beradi, monopoliyaga qarshi kurashadi, pul qadrsizlanishining oldini oladi. Shu bilan bir qatorda, aholini ijtimoiy himoya qiladi, daromadlarni qayta taqsimlashda qatnashib, ijtimoiy tengsizlikni cheklab turadi, ishsizlikning oldini oladi, jamiyatda barqarorlikni ta'minlab turadi.





Shunday bo'lsa-da, davlatning haddan tashqari iqtisodiyotga aralashuvi yaxshi oqibatlariga olib kelmaydi. Turli mamlakatlarda davlatning iqtisodiyotga aralashuv me'yori turlichadir.

Mamlakatimiz hozirda bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lidan bormoqda. Bunday sharoitda ham davlatning iqtisodiyotdagi o'rni beqiyosdir. Prezidentimiz I. A. Karimov bozor iqtisodiyotiga o'tishning besh tamoyilidan biri deb davlatning bosh islohotchi ekanligini belgilab berganligi ham bejiz emas.



1. Davlatning iqtisodiy faoliyati nimalarda namoyon bo'ladi?
2. Davlatning ham iste'molchi sifatidagi, ham ishlab chiqaruvchi sifatidagi faoliyatlarini sanang.
3. Davlatning iqtisodiyotni tartibga solib turuvchi vazifalari haqida nimalar bilasiz?
4. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvining chegarasi bormi?

## 5.2. Davlat budjeti

Siz 5-sinfda oila budjeti haqida batafsil tushunchaga ega bo'lgan edingiz. Oila budjeti ma'lum muddat davomidagi oilaning daromadlari va xarajatlarini aks ettiruvchi jadvaldan iborat ekanligi yodingizda bo'lsa kerak. Xuddi shuningdek, korxonalar yoki firma faoliyatining ma'lum davrdagi daromadlari va xarajatlari buxgalteriya balansida qayd qilinishini oldingi bobda ko'rib o'tgan edik.

Oilalar budjeti, firmaning buxgalteriya balansini kabi, davlat miqyosidagi daromadlar va xarajatlar davlat budjetida o'z aksini topadi. Davlat budjeti, odatda, bir yilga, yarim yilga, chorak yilga va bir oy muddatga tuzilishi mumkin.

**Davlat budjetida** ma'lum muddat ichida davlatning daromad manbalari va ularning sarflanishi, ya'ni taqsimoti, qaysi sohalarda qanday miqdorda ishlatilishi aks ettiriladi. Davlat budjeti daromad va xarajat qismlardan iborat bo'ladi.



Davlat budjetining **daromad qismida**, davlat **daromadining manbalari** ko'rsatiladi. Davlat budjetining daromad qismi manbalariga turli xil soliqlar, tashqi iqtisodiy faoliyat va davlat mulkini sotishdan tushgan pul tushumlari, aholidan, davlat tomonidan olingan qarzlari va boshqa turli ko'rinishdagi davlat yig'imlari kiradi.

Davlat budjetining **xarajat qismiga** ishlab chiqarish sohasini rivojlantirish, ijtimoiy himoya va ta'minot sohasi, fan va ta'lim, sog'liqni saqlash tizimi, madaniy soha tizimi, milliy mudofaa, davlat tashkilotlarining faoliyatini ta'minlash, tashqi iqtisodiy aloqalar, tabiatni muhofaza qilish tizimi uchun ajratilgan mablag'lar kiradi.

Odatda, davlat budjetining daromad va xarajat qismlari o'zaro muvozanatda bo'lmaydi. Ko'pincha, daromadga qaraganda xarajat ko'proq bo'ladi.

Davlat xarajatlari va daromadlari orasidagi farqni **budget kamomadi (defitsiti)**, bunday budjetni esa kamomadli budjet deb atashadi.

Davlat budjetini tuzishdan asosiy maqsad moliyaviy resurslarni oqilona taqsimlash yordamida mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdan iborat.

Davlat budjeti tahlil qilinganda, qancha mablag' qayerdan kelyapti va qaysi sohalarga yo'naltirilyapti, degan savollarga javob topiladi. Davlat bozor iqtisodiyoti sharoitida budjet yordamida iqtisodiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatib, bir yillik iqtisodiy rivojlanishni rejalashtiradi va baholaydi. Yil oxirida budjetda rejalashtirilgan va amalda erishilgan natijalarni solishtirib, keyingi yil budjetiga o'zgarishlar kiritadi, mamlakatning kelgusidagi iqtisodiy istiqbollari belgilab beradi.

Quyida O'zbekiston Respublikasining 2012-2013-yilga mo'ljallangan davlat budjetini ilova qilamiz.

Asosiy byudjet ko'rsatkichlari	2012-yil		2013-yil	
	YaIMga nisbatan %	Soliq tushumlarida salmog'i	YaIMga nisbatan %	Soliq tushumlarida salmog'i
Davlat byudjeti daromadlari maqsadli jamg'armalarsiz	22,0	100	21,9	100
Bevosita soliqlar	5,7	26,1	5,8	26,2
Bilvosita soliqlar	11,1	53,2	10,6	53,5
Resurs soliqlari	3,8	15,1	3,9	14,3
Boshqa daromadlar	1,4	5,6	1,6	6,0
Byudjet xarajatlari	21,7	100	21,5	100
Byudjet bajarilishi YaIMga (+profitsiti, -defitsiti) nisbatan	+0,3%		+0,4%	



**Davlat budjetidan ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari tarkibi**

Ko'rsatkichlar	2012-yil		2013-yil	
	mlrd.so'm	% da	mlrd.so'm	% da
Davlat byudjeti xarajatlari	13 733	100	16 991	100
Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari - jami	8 113	59,1	10 112	59,5
maorif	4 635	33,8	5 890	34,6
sog'liqni saqlash	1 704	12,4	2 217	13,0
madaniyat va sport	160	1,2	194	1,1
fan	84	0,6	111	0,6
ijtimoiy ta'minot	59	0,4	74	0,4
oilalarga ijtimoiy nafaqalar	1 432	10,4	1 582	9,3



Yangi Soliq kodeksiga soliq siyosatini shakllantirishning amaliyotda sinovdan o'tgan prinsiplari asos sifatida olingan. Undan amaliyotda bevosita foydalanish uchun imkoniyatlar yaratilgani ham qulaylik tug'diradi. Chunki 2007-yil dekabr oyida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida"gi Qonuni asosida ko'plab yo'riqnoma, nizom va tartiblar bekor qilindi.

Yangi Soliq kodeksi bevosita qo'llaniladigan Qonun bo'lib, davlatga to'lanadigan barcha soliq va majburiy to'lovlarni o'zida aks ettirgan. Shunga qaramay, uni yanada takomillashtirish davlatimiz tomonidan soha vakillari oldiga qo'yilgan dolzarb vazifalardandir. Shuning uchun bugungi kunda Soliq kodeksining keng monitoringi yuritilmoqda, samaradorligi tahlildan o'tkazilmoqda.



1. Davlat budjeti nima?
2. Davlat budjeti qanday muddatlarga tuziladi va u qanday qismlardan iborat?
3. Davlat budjetining daromad qismiga nimalar kiradi?
4. Davlat budjetining xarajat qismiga nimalar kiradi?
5. Budjet kamomadi deb nimaga aytiladi?
6. Davlat budjetini tuzishdan qanday maqsadlar ko'zlanadi?

### 5.3. Yalpi milliy mahsulot

Butun davlat miqyosidagi ishlab chiqarish hajmini aniqlash maqsadida, yalpi milliy mahsulot, deb atalmish iqtisodiy ko'rsatkichdan foydalaniladi.

Yalpi milliy mahsulot (YaMM) – mamlakatda bir yil mobaynida ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlardan iborat bo'ladi va pul birliklarida o'lchanadi. YaMM ga mazkur mamlakatga tegishli bo'lgan resurslar evaziga ishlab chiqarilgan tugal ko'rinishdagi tovar va xizmatlar kiritiladi.



Aytmaylik, bir mamlakatda 2012-yil 100 mlrd. dollarlik, 2013-yilda esa 120 mlrd. dollarlik yalpi milliy mahsulot ishlab chiqarildi. Demak, bu mamlakatda 2013-yil 2012-yilga qaraganda ko'proq mahsulot ishlab chiqarilib, iqtisodiyotda o'sish ro'y bergan. Ikkinchi mamlakatda esa, 2012-yil 80 mlrd. dollarlik, 2013-yilda esa 75 mlrd. dollarlik yalpi milliy mahsulot yaratilgan. Bu mamlakatda 2013-yil 2012-yilga qaraganda 5 mlrd. dollarlik kam mahsulot ishlab chiqarilgan. Demak, bu mamlakat iqtisodiyotida o'sish emas pasayish kuzatilgan.

YaMM mamlakatda yil davomida ishlab chiqarilgan mahsulotning miqdorini aniqlovchi ko'rsatkich bo'lsa, iqtisodiyotning sifat jihatini mamlakat aholisi jon boshiga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi aniqlaydi.

$$\text{Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaMM miqdori} = \frac{\text{YaMM}}{\text{Mamlakat aholisi soni}}$$

Uni topish uchun, YaMM mamlakat aholisining soniga bo'linadi:

Masalan, bir mamlakatda 50 mln. aholi istiqomat qilib, 2005-yilda 150 mlrd. dollarlik YaMM ishlab chiqardi. Bu mamlakatning bitta fuqarosiga to'g'ri keladigan YaMM miqdori

$150\,000\,000\,000 : 50\,000\,000 = 3000$  dollarni tashkil qiladi.

Ikkinchi davlatda esa 20 mln. aholi 100 mlrd. dollarlik YaMM ishlab chiqardi.

Bu mamlakatning bitta fuqarosiga to'g'ri keladigan YaMM miqdori

$100\,000\,000\,000 : 20\,000\,000 = 5000$  dollarni tashkil qiladi.

Bu ma'lumotlar asosida ikkinchi davlat hajm jihatidan kam YaMM yaratgan bo'lsa-da, uning aholisi yaxshiroq, unumliroq ishlagani haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin.



1. Yalpi milliy mahsulot nima?
2. Yalpi milliy mahsulotga qanday tovarlar kiritiladi va nima uchun?
3. Iqtisodiyotning sifat jihatidan rivojini qanday ko'rsatkich aniqlaydi?
4. Mamlakat aholisi jon boshiga to'g'ri keladigan YaMM ni mamlakat aholisining mehnat unumdorligi deb atasa bo'ladimi?

#### 5.4. Pul muomalasi. Inflatsiya.

Ma'lumki, har bir davlat hududida qandaydir miqdordagi pul muomalada bo'lib, oldi-sotdi jarayonlari ular vositasida amalga oshiriladi. Shu sabab, muomaladagi pullar to'xtovsiz harakatda bo'lib, aylanib turadi.

Pulning biror oldi-sotdi jarayoniga qatnashib, "qo'ldan-qo'lga o'tishi", uning bir marta aylanganligini bildiradi.

Odatda, maosh uchun berilgan pullar yil davomida 12 marta aylanadi. Chunki har oyda maosh sifatida olingan pullarga aholi o'zi uchun kerakli tovar va xizmatlar sotib olib, uni yana bozorga qaytaradi.



**Muomaladagi pul** miqdorining bir yil davomida necha marta oldi-sotdi jaraonlarida qatnashganiga qarab, uning **aylanish tezligi** aniqlanadi.

Agar muomaladagi pul miqdorini uning aylanish tezligiga ko'paytirsak, yil davomida **mamlakatda ishlab chiqarilgan va aholi tomonidan sotib olingan tovar va xizmatlarning qiymatini** hosil qilamiz.

Demak, bir yil davomida mamlakatda ishlab chiqarilgan va aholi tomonidan sotib olingan tovar va xizmatlarning puldagi qiymatini —  $T$  harfi bilan, muomaladagi pul miqdorini —  $M$  harfi bilan, pulning aylanish tezligini esa —  $V$  harfi bilan belgilasak,

$$T = M \cdot V$$

tenglikka ega bo'lamiz.

Ikkinchi tomondan, yil davomida ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar qiymatini boshqa usul bilan ham aniqlash mumkin.

Aytaylik, mamlakatda ishlab chiqarilgan va aholi tomonidan sotib olingan **tovar va xizmatlarning shartli miqdorini** —  $Q$  harfi bilan, birlik **mahsulotning o'rtacha narxini** —  $R$  harfi bilan belgilaylik. U holda, yil davomida ishlab chiqarilgan va sotib olingan tovar va xizmatlarning puldagi qiymatini birlik mahsulot narxiga ko'paytirib topiladi, ya'ni

$$T = Q \cdot R$$

tenglik o'rinli bo'ladi.

Demak, yuqorida hosil qilingan ikki tenglikdan

$$M \cdot V = Q \cdot R$$

ko'rinishdagi tenglamani hosil qilamiz.

Bu tenglama **pul muomalasi qonunini** ifodalab, mashhur iqtisodchi matematik Irving Fisher sharafiga, "**Fisher tenglamasi**" – deb nomlanadi. Uni boshqacha "**almashuv tenglamasi**" deb ham yuritishadi.

Pul muomalasi qonuni, mamlakatning jami xarajatlari, yaratilayotgan jami tovar va xizmatlar qiymatiga teng ekanligini, ya'ni ularning doimo muvozanatda bo'lib turishini ko'rsatadi.

Keling, endi yuqoridagi savolga qaytaylik. Faraz qilaylik, mamlakatda ko'p miqdorda pul chiqarilib, muomaladagi pul miqdori —  $M$  ko'paygan bo'lsin. Bu — Fisher tenglamasining chap tomoni "og'irlashib" qoldi degani.

Tenglamadagi muvozanatni tiklashning quyidagi yo'llari bor:

1. Tenglamaning ikkinchi tomonida turgan tovar va xizmatlar miqdori —  $Q$  ni ko'paytirish. Buni esa, afsuski, birpasda bajarishning imkoniyati yo'q.
2. Tovar va xizmatlarning o'rtacha narxi —  $p$  ni oshirish.



Bunga hech qanday harakatning keragi yo'q, chunki buni bozorning o'zi bir zumda bajarib qo'yadi.

Demak, muomaladagi pul miqdorining o'sishi, hech qanday yaxshi oqibatga olib kelmas ekan. Maosh oshsa, mos ravishda narxlar ham oshib, aholi turmush darajasida hech qanaqa o'zgarish yasalmas ekan.

Oldin tovar narxi 100 pul birligi bo'lgan bo'lsa, maoshlar oshirilgandan keyin uning narxi 200 pul birligi bo'lib qoladi. Bu holat pulning qadrsizlanishini anglatadi.

Iqtisodiyotda muomaladagi pul miqdorining keskin o'sib ketishi, narx-navoning ko'tarilishi, pul birligining qadrsizlanishi bilan bog'liq jarayonga **inflatsiya** deb ataladi.

Aytaylik, endi muomaladagi pul miqdori emas, ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlar miqdori  $Q$  ko'paygan bo'lsin. Bu holatda Fisher tenglamasining o'ng tomoni "og'irlashgan" bo'ladi.

Muvozanatni tiklash uchun yana ikki yo'l bor:

1. Muomaladagi pul miqdorini ko'paytirish. Buni turli xil vositalar yordamida davlat amalga oshirishi mumkin.

2. Tovar va xizmatlar narxini tushirish. Buni bozorning o'zi tartibga soladi.

Demak, arzonchilik bo'lib, narx-navoni tushirishning eng asosiy yo'li ishlab chiqarish hajmini ko'paytirishdan iborat ekan.



### Inflatsiya asoschisi

Shotlandiyaning Edenburg shahrida dunyoga kelgan Djon Loni inflatsiyaning asoschisi deb atashadi. Gap shundaki, qimorboz Loni Angliyada duelda qatnashib, odam o'ldirgani uchun qamoq jazosiga hukm qilinadi. Tez orada u qamoqdan qochib Fransiya kelib qoladi va bank ishi bilan shug'ullana boshlaydi.

Tez orada "hammani baxtli, boy qilish" haqida ikkita kitob yozadi. Uning fikricha muomaladagi tangalarni yig'ishtirib olib, istalgancha hajmda qog'oz pul chiqarib hammani boy-badavlat qilish mumkin emish. Uning bu fikri Fransiya qiroli Filipp Orleanskiyga ma'qul tushib, 1716-yil u bank direktori, keyinchalik esa moliya vaziri bo'lib qoladi.

Shu tariqa, na tovar, na xizmatlar bilan ta'minlanmagan qog'oz pullar muomalaga chiqarilgan. Bu esa pulning qadrsizlanishiga, inflatsiyaga va butun davlat bank sistemasining sinishiga olib kelgan. Lo nomi esa inflatsiyaning otasi sifatida tarixda qoldi.

Shuning uchun ham davlat ishlab chiqarishni har tomonlama qo'llab quvvatlaydi, bank tizimi orqali, muomaladagi pul miqdorini tartibga solish orqali, inflatsiyaning oldini olish yo'llarini qidiradi.





1. Pulning muomala vositasi ekanligini qanday tushunasiz?
2. Pulning aylanish tezligi nimani anglatadi?
3. Pul muomalasi tenglamasi nimani anglatadi?
4. Inflatsiya nima?
5. Fisher tenglamasini inflatsiya nuqtayi nazaridan tahlil qiling?
6. Mavzu boshlanishida qo'yilgan savolga javob bering.

## 5.5. Tashqi iqtisodiy aloqalar

Ma'lumki, har davlat hududida o'z milliy valutasini muomalada bo'ladi. Shu sababli boshqa davlatlar bilan tashqi iqtisodiy aloqalar, mamlakat ichkarisidagi iqtisodiy aloqalaridan farq qiladi.

Mamlakatga boshqa davlatlardan tovar sotib olinishini **import** deb ataladi. Aksincha, mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlarni boshqa davlatga sotishni **eksport** deb ataladi.

Eksport va import birgalikda mamlakatning **tashqi savdo oboroti (aylanmasi)** ni tashkil qiladi.

Tovar boshqa davlatdan sotib olinayotganda, o'sha davlat valutasida, ya'ni pul birligida haq to'lashga to'g'ri keladi. Xuddi shunday, biror mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulot shu mamlakat valutasida sotiladi. Natijada, bir davlat pulini ikkinchi davlat puliga almashtirishga ehtiyoj paydo bo'ladi.

Bir mamlakat pul birligining boshqa mamlakat pul birligida ifodalangan qiymati **valuta kursi** deb ataladi. Ba'zi davlatning pul birliklari (masalan, AQSh dollari, yevro va boshqalar) universal, hammabop valuta rolini bajaradi.

Mamlakatlarning import va eksport hajmlari o'zgarib turadi. Ba'zida import hajmi eksport hajmidan ko'p bo'ladi, ba'zida esa aksincha, eksport importdan ko'p bo'ladi.

Davlatning import va eksport hajmlari uning **to'lov balansida** o'z ifodasini topadi.

Mamlakat eksport hajmining import hajmidan qanchalik ko'pligiga qarab, uning jahon bozoridagi ishtirokini, mavqeyini va valutasining qanchalik kuchli ekanligini bilish mumkin.

Mustaqillik tufayligina O'zbekiston Respublikasi jahon bozorining teng huquqli a'zosiga aylandi.



1. Import va eksport nima?
2. Nima sababdan bir davlat pulini ikkinchi davlat puliga almashtirishga ehtiyoj paydo bo'ladi?
3. Valuta kursi deb nimaga aytiladi?
4. To'lov balans nima?
5. Qanday vaziyatda import, qanday vaziyatda esa eksport afzal bo'ladi?
6. Mamlakat iqtisodiyoti salohiyatini to'lov balansiga qarab aniqlash mumkinmi?



5400 e

**SHERZODBEK SARIQOV, XOJIAKBAR SARIQOV**

## **IQTISOD VA SOLIQ SABOQLARI**

*Umumiy o'rta ta'lim maktablarining  
7-sinfi uchun o'quv qo'llanma*

Toshkent – «Yangiyo'l Poligraf Servis» – 2016  
Nashriyot litsenziyasi AI № 185 10.05.2011 y.

Muharrir – J. Azimov

Texnik muharrir – M. Riksiyev

Musahhah – M. Riksiyeva

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 25.01.16. Bichimi 70x90<sup>1</sup>/<sub>16</sub>.  
«Arial» garniturasini. Ofset bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog'i 3,0.  
Nusxasi 60000. Buyurtma № 3-16.

**“Yangiyo'l poligraf servis” MCHJ bosmaxona.  
112001, Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani, Samarqand ko'chasi, 44.**